O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/1



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga

ilmiy-nazariy jurnali

2026/1

Bosh muharrir
Rashid MATKARIMOV

Bosh muharrir o‘rinbosari ilmiy maslahatchi:
SH.SH. GAZIYEV

Tahrir hay’ati tarkibi:

E.T. Raxmanov
SH.S. Mirzanov
M.X. Mirjamalov
M.O‘. Arziqulov
S.B. Repkin
Bek Mun Jong
I.P. Sivoxin
N.T. To‘xtaboyev
B.K. Erimbetov
I.B. Aliyev
L.P. Yugay
D.X. Umarov
A.K. Eshtayev
K.SH. Ziyadullayev
N.J. Isakulova
A.B. Jumaniyazov
M.M. Qirg‘izboyev

Tahrir hay’ati kotibi

SH.X. Toshturdiyev
B.A. Ishimov
R.I. Isroilov
A.U. Rashidov
O.Y. Mamishev
A.S. Gonashvili

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N.G‘afforov
U.O. Azimova
SH.B. Aliyeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

Jurnalning telegram kanali

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ

SPORT MASHG‘ULOTLARI: TEXNIKA, TAKTIKA, USULIYAT SPORTS TRAINING: TECHNIQUE, TACTICS, METHODOLOGY ТЕХНИКА, ТАКТИКА И МЕТОДИКА СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКИ

Г.М. Зоитова., А.Р. Машарипов., Д.А. Холмуродова., М.Н. Исломова., Н.А. Убайдуллаева – Комплексная оценка постурального контроля и физической подготовленности спортсменок сборной команды Республики Узбекистан по синхронному плаванию. 3

O.O. Kasimov – Xalqaro sport musobaqalarida sportchilar ishtirokida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmlari. 6

N.R. Saidova – Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning mashg‘ulotlarini kompleks nazorat qilish orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 9

A.T. Ro‘zmetov – Voleybolda to‘p qabul qilish va uzatish aniqligini takomillashtirish texnologiyasi samaradorligi. 13

Г.Т. Саидова – Сравнительная оценка соматотипологических особенностей спортсменок, занимающихся фехтованием и художественной гимнастикой. 17

Е.С. Епифанова – Влияние специфики тренировочного процесса тяжелоатлеток в подготовительном периоде. 20

D.S. Nishanova – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi basketbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samarali uslubiyati. 23

X.X. Qurbonov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘rta masofalarga yuguruvchilar mashg‘ulotlarini tashkil etish uslubiyati. 27

С.Ф. Ашуркова., А.А.Умматов – Развитие скоростно-силовых способностей волейболисток 14-15 лет с использованием специальных упражнений легкоатлетов. 32

M.K. Jumaniyazov – Regbi sportchilarida chidamlilikni rivojlantirish usullari va ularning funksional ko‘rsatkichlarga ta’siri. 36

N.A. Egamberdiyeva – Yosh basketbolchilarni kombinatsiyalangan mashqlar orqali o‘yin texnikasini optimallashtirish uslubiyati. 39

H.E. Musulmonov – Malakali belbog‘li kurashchilarda usullarni o‘ng- chap tomonlama qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari va uning samaradorligi. 43

F.V. Ganiyeva – Malakali basketbolchilarning jismoniy konditsiyalarini takomillashtirishda maxsus jismoniy mashqlardan foydalanish omili. 47

A.T. Xasanov., B.B. Xaitbayeva – Ritmik gimnastika vositalarini o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va samaradorligi. 51

J.M. Shukurllayev – Mini voleybolni voleybolga integratsiyalash jarayonida mashg‘ulotlar piramidasining metodik asoslari. 54

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/1

J.O. Xajibaev – Dzyudochilarning yillik tayyorgarlik davrida kuch tayyorgarligini oshirish uslubiyati. 59

M.A. Umbetova – Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlanish darajasini aniqlash va rivojlantirish samaradorligi. 62

A.O‘. Matnazarov – Og‘ir atletikachilarning siltab ko‘tarish mashqini tayyorgarligini pedagogik nazorat qilish. 67

M.O. Xamudov – 400 metrga yuguruvchi o‘quv-mashg‘ulot guruhi sportchilarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi. 71

A.M. Yusupov – Kurashchilarni texnik usullarini bajarishdagi tezkor kuch sifatini rivojlantirish. 75

P.P. Акрамов – Планирование технической подготовки юных пловцов с учётом возрастных особенностей двигательного развития. 77

A.A. Boltayev – Yuqori malakali voleybolchilarda maxsus ish qobiliyatining tezokrlik-kuch komponentlari. 80

G‘.U. Berdiyev – Jismoniy tarbiya darslarini ochiq havoda o‘tkazishda issiq iqlim sharoitining mashg‘ulot o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri. 83

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

M.B. Akbarov – Maktab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishda yengil atletika mashg‘ulotlariga gimnastika vositalarini integratsiya qilish samaradorligi. 88

Ф.А. Соловьева – Перспективы применения искусственного интеллекта в менеджменте фитнес-индустрии: анализ цифровых решений. 91

O.K. Raupov., N.I. Isoev., A.A. Kurbonov – Oliy ta’lim muassasalarida sport mashg‘ulotlarini qiziqarli va interaktiv shakllarda tashkil etish samaradorligi. 94

J.A. Ochilov – Zamonaviy axborot jamiyatida bolalarning sportga oid ta’lim tarbiya madaniyatini takomillashtirish. 97

A.A. Mamatkulov – I-IV sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishlarida total va parsial ko‘rsatkichlar tahlili. 99

T.U. Ismoilov – Yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda davlat direktiv hujjatlarining ahamiyati. 104

A.A. Tursunov – Voleybolda to‘pni qabul qilish va uzatish texnikasi aniqligini erta yosh bosqichida shiddatli yuklamalar asosida shakllantirishning pedagogik xususiyatlari. 107

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА

М.Г. Хайдаров., М.Р. Ташев – Формирование и совершенствование бросковых навыков в спортивной игре «бочча». 111

X.S. Arabov – Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi futbolchilar tayyorgarligini oshirishda kompleks harakatlar texnologiyasini qo‘llash mexanizmi. 114

Pedagogika fanlari nomzodi, professor
T.U. ISMOILOV[1]
[1]Namangan davlat universiteti
Namangan shahri, O‘zbekiston

10.65149/fansport.2026.v9i1.a029

YOSH AVLODNI SOG‘LOM VA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA DAVLAT DIREKTIV HUJJATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

В данной статье подробно рассматривается значение государственных директивных документов в сфере физического воспитания и спорта в процессе всестороннего и здорового воспитания молодого поколения, которое после обретения независимости рассматривается руководством нашей республики как будущее страны.

***Ключевые слова**: спорт, физическое воспитание, оздоровление, оздоровительные мероприятия, здоровый образ жизни, движение, двигательная активность, молодое поколение, гармонично развитое поколение.*

Abstract

Ushbu maqolada respublikamiz rahbariyati tomonidan mustaqillikka erishilgandan so‘ng kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni barkamol va sog‘lom qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid davlat direktiv hujjatlarining ahamiyati batafsil yoritilgan.

***Kalit so‘zlar**: sport, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, sog‘lomlashtirish tadbirlari, sog‘lom turmush tarzi, harakat, harakat faolligi, yosh avlod, barkamol avlod.*

This article examines the significance of state directive documents in the field of physical education and sports in fostering a well-rounded and healthy young generation, which has been regarded by the leadership of the Republic as the foundation of the country's future since independence.

***Keywords**: sport, physical education, health promotion, health activities, healthy lifestyle, movement, physical activity, young generation, well-rounded generation.*

Dolzarbligi.

Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash mamlakatimizning eng muhim, ustuvor hamda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti, millat salohiyati va davlat barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng respublikamiz rahbariyati tomonidan yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, bolalar va o‘smirlarni sportga keng jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar yoshlarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lomlashtirish tizimini takomillashtirish va sport infratuzilmasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlar mazkur sohani yangi bosqichga olib chiqishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [1–5].

Mazkur hujjatlarda jismoniy tarbiya va sportni ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning harakat faolligini oshirish hamda sport orqali irodaviy sifatlar, intizom va mas’uliyat tuyg‘usini tarbiyalash vazifalari belgilab berilgan. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, sport to‘garaklari faoliyatini kengaytirish, zamonaviy sport inshootlari barpo etish orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga alohida urg‘u qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni, uni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash hamda mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli islohotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash jarayonida davlat direktiv hujjatlarining o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, mazkur hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar, strategik maqsadlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashga oid davlat direktiv hujjatlarining mazmuni va mohiyatini o‘rganish;

Mazkur hujjatlarda belgilangan maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni tizimli tahlil qilish;

Davlat direktiv hujjatlarining yoshlarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy barkamolligiga ta’sirini ilmiy jihatdan baholash;

Davlat siyosati doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini aniqlash.

Mamlakatimizning ertangi kuni va istiqboli uning barqaror rivojlanishi hamda gullab-yashnashi, avvalo,

o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, ruhan tetik, har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Zero, jismonan sog‘lom va ma’naviy barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchidir. Shu bois Vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay ijtimoiy-pedagogik sharoitlar yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab qabul qilingan jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid qonunlar, farmonlar hamda qarorlar muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular jismoniy tarbiya va sportni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish hamda sport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim mazmuni va hajmini belgilashni, shuningdek ta’lim muassasalarining ijtimoiy vazifasini samarali amalga oshirishni nazarda tutadi. Mazkur dastur, avvalo, mamlakatimiz aholisining jismoniy, ruhiy va aqliy salohiyatini rivojlantirish, jamiyatning madaniy va axloqiy darajasini yuksaltirish hamda aholining turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘quvchi-yoshlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning jismoniy barkamolligini ta’minlash va sog‘ligini mustahkamlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish jismoniy tarbiya vositalaridan to‘laqonli va tizimli foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Ayniqsa, maktab yoshidan boshlab o‘quvchilarda o‘z sog‘lig‘iga ongli munosabatni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzining mazmun-mohiyatini anglatish va muntazam jismoniy faollikka bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, davlat direktiv hujjatlarida belgilangan vazifalar yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur qonun yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga doir qabul qilingan qator qarorlar millatimiz kelajagi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning poydevorini yanada mustahkamladi.

Ushbu huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida shahar va qishloqlarda zamonaviy sport inshootlari barpo etildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi hamda zamon talablariga javob beradigan sport anjomlari bilan jihozlandi. Bu esa respublikamizda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonining ortishiga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti, ayniqsa, kelajak istiqboli uchun g‘oyat muhim bo‘lgan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois respublikamizda aholi salomatligini mustahkamlash, yoshlarni sportga keng jalb etish va ommaviy sportni rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “O‘zbekistonda ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ommaviy sportni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uning samaradorligini oshirish hamda sport faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda oilalarda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, umumta’lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, mahallalarda, dam olish maskanlarida, bolalar oromgohlari va istirohat bog‘larida ommaviy sport tadbirlarini samarali tashkil etish va o‘tkazish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa aholining, ayniqsa, yoshlarning sog‘lig‘ini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari hamda o‘quv kun tartibida belgilangan sog‘lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur jarayon yoshlarning harakat faolligini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy hayotida muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur qonun jismoniy tarbiya va sport sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlab, ushbu yo‘nalishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Natijada sportni rivojlantirish, ommaviylashtirish hamda aholining jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar yo‘lga qo‘yildi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qator qarorlar jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlar asosida shahar va qishloqlarda zamonaviy sport inshootlari barpo etildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi hamda zamon talablariga javob beradigan sport anjomlari bilan jihozlandi. Bu jarayon respublikada jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar sonining ortishiga, sog‘lom turmush tarzining shakllanishiga va yoshlarning sportga qiziqishining oshishiga

xizmat qilmoqda.

Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz va jamiyatimizning bugungi hamda kelgusi taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim strategik vazifa hisoblanadi. Shu bois aholi salomatligini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yil 3-iyundagi “O‘zbekistonda ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ommaviy sportni tizimli tashkil etish va uning samaradorligini oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda oilalarda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, umumta’lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, mahallalarda, dam olish maskanlarida, bolalar oromgohlarida hamda istirohat bog‘larida ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa aholining, ayniqsa yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya darslari va o‘quv kun tartibidagi sog‘lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati beqiyosdir. O‘sib kelayotgan yosh avlod salomatligini mustahkamlash xalq ta’limi tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan beshta ustuvor yo‘nalishning to‘rtinchisi – “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” – doirasida yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roliga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur farmonda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan hamda Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash;

yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish;

bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat organlari, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish.

Shu tariqa, davlat direktiv hujjatlari yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashning huquqiy, tashkiliy va metodik asoslarini yaratib, mamlakat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Olib borilgan pedagogik kuzatishlar hamda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Mustaqillik yillaridan boshlab qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, Prezidentimizning farmon va qarorlari yoshlarning jismoniy, ma’naviy hamda intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy-me’yoriy asos yaratdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat direktiv hujjatlarida belgilangan vazifalar yosh avlodni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda sog‘liqni mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va o‘quv kun tartibidagi sog‘lomlashtirish tadbirlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi hamda sog‘lom turmush ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yoshlarni jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan yetuk, Vatanga sodiq insonlar etib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilgani mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning izchilligini ta’minlamoqda. Strategiyada belgilangan vazifalar yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, davlat direktiv hujjatlari yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashning nazariy, huquqiy va amaliy asosini tashkil etadi. Ularning izchil va samarali ijrosi jamiyatning barqaror rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzining keng qaror topishi hamda kelajak avlodning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Marifat. - Toshkent, 1998. 1-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (2015. 04.09). Xalq so‘zi. –Toshkent, 2015. 5-sentabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent: “Adolat”, 2017. -112 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2017. 3 iyun). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami № 23. -Toshkent, 2017. 12 iyun.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomilashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (2020, 24 yanvar).


YONEX
Knock-Out Stage
CUI/PENG
HN/LEE
'4 Mixed Team - Knock-Out Stage
KARUNAKARAN Sathish Kumar
SU Li Yang
RHINE-RUHR 2025
FISU WORLD UNIVERSITY GAMES
Nikon
Deloitte.
RIEDEL
macron
YONEX
WESTLOTTO
RIEDEL
macron